

AREAL LINGVISTIKADA IZOGLOSSALARNING O'RNI: MINGBULOQ TUMANI QARLUQ SHEVALARI MISOLIDA

Qosimova Shodiya Ulug'bek qizi

Termiz davlat universiteti kompyuter

lingvistikasi yo'nalishi magistranti

e-mail: qosimovashodiya788@gmail.com

tel.: +998(94) 279 26 65

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek dialektologiyasining muhim tarmog'i — areal lingvistika va uning metodologik asosi bo'lgan izoglossalar haqida so'z boradi. Tadqiqotda Namangan viloyati Mingbuloq tumani hududida yashovchi qarluq lahjasiga xos dialektal xususiyatlar, ularning fonetik, morfologik va leksik sathdagi izoglossalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Dialektologiya, areal lingvistika, izoglossa, Mingbuloq shevasi, Qarluq lahjasi, fonetik o'zgarishlar, leksik izoglossa, lingvistik xarita, Jomashuy, lisoniy chegara.

Abstract: This article discusses areal linguistics—a significant branch of Uzbek dialectology—and isoglosses, which serve as its methodological foundation. The research analyzes the dialectal characteristics unique to the Qarluq dialect spoken in the Mingbulak district of the Namangan region. Specifically, the study examines the phonetic, morphological, and lexical levels of these dialectal features through the prism of isoglossal distribution.

Keywords: Dialectology, areal linguistics, isogloss, Mingbulak dialect, Qarluq dialect, phonetic changes, lexical isogloss, linguistic map, Jomashuy, linguistic boundary.

Kirish:

Dialektologiya — xalqning oʻtmishi, madaniyati va maʼnaviy qadriyatlari saqlanib qolgan jonli tarixdir. Tilshunoslikning ushbu yoʻnalishida areal lingvistika (lingvistik geografiya) alohida oʻrin tutadi. Lotincha *"area"* — maydon, hudud va *"lingvistika"* — tilshunoslik soʻzlaridan tarkib topgan ushbu fan sheva xususiyatlarining geografik kengliklarda tarqalish chegaralarini oʻrganadi.

Areal lingvistikada til hodisalari xaritaga tushiriladi va maxsus shartli belgilar yordamida lisoniy manzara aks ettiriladi. Bu jarayonda asosiy tushuncha izoglossa hisoblanadi.

Izoglossa (yunoncha *"izo"* – teng, *"glossa"* – til) — til xaritasida muayyan lisoniy hodisa (tovush, qoʻshimcha yoki soʻz) tarqalgan hududlarni tutashtiruvchi chiziqdir. Ular quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Izofonemalar (fonetik oʻxshashliklar);
2. Izomorfemalar (grammatik shakllar mosligi);
3. Izoleksemalar (soʻz boyligidagi umumiylik).

Tavsifiy dialektologiyada izoglossalar muayyan shevaning etalon tildan yoki qoʻshni shevalardan farqlanish darajasini aniqlab beradi.

Namangan viloyatining Mingbuloq tumani oʻzining rang-barang dialektal manzarasi bilan ajralib turadi. Xususan, tumandagi Qarluq (oʻgʻuz va qipchoq shevalari bilan qorishiq boʻlmagan, asosiy "shashmaqom" xususiyatlarini saqlagan) shevalari arealogik jihatdan boy material beradi.

Dialektologiya — xalqning lisoniy qadriyatlari mujassamlashgan fan sifatida, hududiy farqlarni maxsus metodlar yordamida oʻrganadi. Mazkur amaliy tadqiqot Mingbuloq tumanining beshta asosiy mahallasi: "Jomashuy", "Qayragʻoch ovul", "Qolgandaryo", "Madaniyat" va "Chordona" MFYlari hududida olib borildi. Ushbu hududlar orasida "Jomashuy" (tuman markazi sifatida) va "Qayragʻoch ovul" mahallalaridagi dialektal izoglossalarning fonetik, morfologik va leksik oʻzgarishlari

xaritalashtirish uchun asosiy obyekt qilib olindi. Lisoniy hodisaning tabiatiga ko'ra, tadqiqotda fonetik-fonologik, morfemik va leksik izoglossalar tabaqalashtirildi.

Mingbuloq qarluq shevalarida izoglossalarning uch xil asosiy o'zgarishga uchraganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, fonetik sathdagi o'zgarishlar quyidagi tartibda keng tarqalgan: Masalan, kiyim-kechak nomlarida *palto* so'zining *polta* tarzida talaffuz etilishi; *maxsi* so'zining hududiy variant sifatida *massi* shaklida qo'llanilishi. Ushbu tovush almashishlari mahalliy aholining nutqiy xaritasi chizilganda, mahalla chegaralarida aniq lisoniy to'siqlarni (izoglossalarni) yuzaga keltiradi.

O'zbek dialektologiyasida izoglossalarni belgilashda metodologik aniqlik muhim sanaladi. Mashhur tilshunoslar A. Bo'ltayev ¹va G. Blagova ²o'z ishlarida sheva xususiyatlarini ajratishda ikkinchi darajali belgilarga tayanib qolishni qattiq

tanqid qilishgan. Ularning fikricha, aksar tadqiqotlarda shevaning haqiqiy mohiyatini ochuvchi asosiy belgilar mayda va ahamiyatsiz hodisalar ichida yo'qolib ketadi. Shu sababli, Mingbuloq tumani qarluq shevalarini o'rganishda biz nafaqat fonetik o'zgarishlarni, balki shevaning tub tabiatini belgilovchi leksik va morfologik qatlamlarni quyidagi to'rt guruhga ajratgan holda tahlil qildik:

1. Oziq-ovqat (masalan, dehqonchilik mahsulotlari nomlari);
2. Kiyim-kechak (an'anaviy liboslar terminologiyasi);
3. Hayotiy-maishiy (marosimlar leksikasi);
4. Uy-ro'zg'or (asbob-anjom nomlari).

Quyida qishoq xo'jaligi nomlari bilan bog'liq leksemalarning misolida keltirib o'tamiz:

¹ Bo'ltayev A. O'zbek shevalari lingvistik geografiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1974. – B.

² Благова Г. Ф. Тюркское склонение в ареальном аспекте (на материале узбекских диалектов). – М.: Наука, 1982. – С. 45-52.

Qishloq xo'jalik nomlari bilan bog'liq lekemalar

t/r	Adabiy til	Chordona MFY	Madaniyat MFY	Jomashuy MFY	Qolgandaryo MFY	Qayrag'ochovul MFY
1	jo'xori	juvari	bachki	makkajo'xori	juvari	bachki
2	olxo'ri	olxo'ri	sliva	olxo'ri	itmurun	g'aynali
3	sabzi	savzi	soviz	sabzi	savzi	sovuz
4	arra	arra	xarra	arra	dastarra	xarra
5	uvot	o'qoriq	marza	Uvot	o'qoriq	uvot

Dialektlarda uchragan izoglossalar

1	Fonetik	yo'l	jo'l	
2	Leksik	ignatugma	to'nog'ich	tasma
3	Morfologik	bug'doylik	bug'doyzor	
4	Sintaktik	-	-	-

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. BO'ltayev A. *O'zbek shevalari arealogiyasining nazariy asoslari*. – Toshkent: Fan, 1995.
2. Blagova G. F. *Tyurkskoe sklonenie v arealnom osveshenii*. – Moskva: Nauka, 1987.
3. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. *O'zbek dialektologiyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
4. TO'ychiboyev B., Qashqariy X. *O'zbek dialektologiyasi*. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
5. Shoabdurahmonov Sh. *O'zbek xalq shevalari lug'ati*. – Toshkent: Fan, 1971.
6. Mirzayev M. *O'zbek tilining shevalari*. – Toshkent: Fan, 1969.

7. Nazarov Q. *O'zbek dialektologiyasi (O'quv qo'llanma)*. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2007.
8. Journal of Language and Culture (LUCH). *Часть-58, Том-5, Декабрь-2025*. ISSN: 2181-2454. (O'zbek shevalarining areal tadqiqiga oid maqolalar to'plami).